

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DO‘SALIYEVA SAFURA SHAVKATJON QIZI

***ALLIUM KARATAVIENSE REGEL L. O‘SIMLIGINING KIMYOVIY
KOMPONENTLARI VA BIOLOGIK FAOL MAXSULOTLAR OLISH***

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Do‘salieva Safura Shavkatjon qizi

Allium karataviense Regel L. o‘simligining kimyoviy komponentlari va biologik faol maxsulotlar olish..... 5

Дусалиева Сафура Шавкатжон кизи

Химические компоненты растения *Allium karataviense* Regel L. и получение биологически активных продуктов..... 21

Dusalieva Safura Shavkatjon kizi

Chemical components of *Allium karataviense* Regel L. and obtaining biologically active products..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DO‘SALIYEVA SAFURA SHAVKATJON QIZI

***ALLIUM KARATAVIENSE REGEL L.* O‘SIMLIGINING KIMYOVIY
KOMPONENTLARI VA BIOLOGIK FAOL MAXSULOTLAR OLISH**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/K833 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Ibragimov Alidjan Aminovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matchanov Alimjan Davletbayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Abduganiyev Baxtiyor Yermaxamatovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi., 19. Tel.: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93, e-mail: fardu-info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____kuni tarqatildi.

(2025-yil «_____» _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

M.Y.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash majlisi raisi k.f.d., dotsent

Sh.Sh.Turg‘unboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.V.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yangi quyi molekulyar bioregulyatorlarga ega bo'lgan o'simlik xomashyolarini o'rganishga oid tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. O'simlik xomashyolardan ajratib olinadigan quyi molekulyar bioregulyatorlar asosida yaratilgan dorivor vositalar xususiyatlari, tanlab ta'sir etuvchanligi va ekologik bezararligi bilan sintetik dori vositalarga nisbatan samarali ta'sirga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Tabiiy steroidlar va fenol birikmalari asosida dori vositalarini yaratish va amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, ayrim dori vositalarini olishda dorivor o'simliklar asosiy manbaa ekanligi va farmatsevtika sanoatida muhim o'rin egallashi bilan bog'liq. Shuning uchun, o'zida biologik faol birikmalar (xususan steroidlar va fenol birikmalari) saqlovchi o'simlik xomashyolarini kimyoviy jihatdan tadqiq etish hamda ular asosida tibbiyot amaliyotiga, veterinariya va qishloq xo'jaligi sohalari uchun dori vositalarini va pestitsidlar yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli-tuman birikmalarni manbai hisoblangan *Alliaceae* oilasi o'simliklaridan saponinlar va fenol birikmalarni ajratib olish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, o'simlik saponinlari sitotoksik va o'smaga qarshi, kardioprotektiv, gastroprotektiv, spazmolitik, ferment ingibirlovchi, zamburug'ga qarshi, yallig'lanishga qarshi, bakteriyalarga qarshi, mikrobgaga qarshi va antioksidant ta'sirlarga ega bo'lib, ular asosida yaratilgan dori vositalari tibbiyot amaliyotida turli kasalliklarni davolashda qo'llanilib kelinmoqda. Bu borada, *Allium karataviense* Regel o'simligi piyozidan olingan saponinlar yig'indisi asosida dori vositalari yaratish, tarkibida biologik faol saponin va fenol birikmalar saqlagan o'simliklardan individual biologik faol birikmalarni ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolliklarini aniqlash hamda ular asosida turli dori vositalari yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy dorivor o'simliklar asosida import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan dori vositalarini yaratish, aholini sifatli dori-darmon bilan ta'minlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi PF-60-sonli farmoniga asosan dorivor vositalar va biologik faol qo'shimchalar olish usullarini tatbiq etish "Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada O'zbekiston florasida keng tarqalgan *Allium karataviense* Regel o'simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o'rganish hamda ular asosida dori vositalari va biologik faol qo'shimchalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-yanvardagi "2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-55-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14-fevraldagi PQ-3532 sonli “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi PQ-4670 sonli “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya» hamda VII. “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq olib borilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Allium* turkumi o‘simliklari tarkibidagi biologik faol moddalarni aniqlash tadqiqotlari M.Kuroda, K.Ori, H.Takayama, H. Sakagami, Y. Mimaki, T. Fukasawa, Y.Sashida, K.Kavashima, H.Yoshida, D.Sobolewska, K. Michalska, I. Podolak, K.Grabowska, C.R.Adao, B.P.Silva, J.P.Prente, T.Ikeda, V.Lanzotti, H.Matsuura, J.P.Peng, S.M.Sang va boshqalar, MDH davlatlari olimlari - F.S.Khristulas, S.D.Kravets, G.V.Pirtskhvalava, A.S.Shashkov, G.I.Deineko, N.V.Tolkacheva, G.P.Zaytsev, G.Kadyrbayeva kabi dunyoning yetakchi olimlari tomonidan olib borilgan.

O‘zbekistonda mazkur turkum kimyoviy tarkibini o‘rganish tadqiqotlari bilan S.Y.Yunusov, N.K.Abubakirov, M.B.Gorovits, Yu. S. Vollerner, T.T. Gorovits, A.N.Kelginbaev, N.D.Abdullaev, R.Shakirov, K.Samikov, A.I.Ismailov, D.A.Rakhimov, M.A.Khodzhaeva, F.O. Khasanov va boshqalar shugullanishgan. Yuqorida sanab o‘tilgan olimlar O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan o‘simliklarning tarkibidan steroid saponin va sapogeninlar ajratib olish, ularning tuzilishini aniqlash va biologik faolligi hamda uglevod va yog‘ kislota tarkibini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida tibbiyot sohasida qo‘llaniladigan samarali dori vositalari yaratilgan.

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar bu turkum o‘simliklarning turlari o‘z tarkibida turli sinflarga mansub biologik faol birikmalarini ko‘p miqdorda saqlaganligi sababli mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “*Allium karataviense* Regel o‘simligini kimyoviy tadqiq qilish hamda biologik faol qo‘shimchalar olish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston florasida o‘sovchi *Allium karataviense* Regel o‘simligi kimyoviy tarkibini va biologik faolligini aniqlash, biologik faol qo‘shimcha yaratish va TIF TN bo‘yicha tovar kodi ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Allium karataviense Regel o'simligi piyozini ekstraksiya qilish va turli fraksiyalardan kolonkali xromatografiya hamda boshqa usullar yordamida birikmalarni sof holda ajratish;

Allium karataviense Regel o'simligidan ajratib olingan moddalarning kimyoviy tuzilishi va xossalarini kimyoviy hamda fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq qilish;

Allium karataviense Regel o'simligining makro va mikroelementlar tarkibini o'rganish;

Allium karataviense Regel o'simligining kul va oqsil miqdori hamda aminokislotalar, vitaminlar va flavonoidlar tarkibini o'rganish;

Allium karataviense Regel o'simligining biologik faolliklarini aniqlash;

Allium karataviense Regel o'simligi piyozi asosida biologik faol oziq-ovqat qo'shimcha olish uchun texnik shartlarini ishlab chiqish, TIF TN bo'yicha tovar kodlari taklif etish va amalda qo'llash uchun tavsiya etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston hududida o'suvchi *Allium karataviense* Regel o'simligi kimyoviy birikmalari olingan.

Tadqiqotning predmeti *Allium karataviense* Regel o'simligining kimyoviy tarkibiga kiruvchi aminokislotalar, flavonoidlar, vitaminlar, saponinlar, makro va mikroelementlar hamda biologik faolligini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda kimyoviy: ekstraksiya, haydash, kolonkali (KX) va yupqa qatlamli (YuQX) xromatografiya, qayta kristallash hamda uskunaviy usullari: IQ-spektroskopiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, induktiv-bog'langan plazmali mass-spektrometriya, shuningdek biologik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor *Allium karataviense* Regel o'simligi piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug'larining oqsil miqdori, aminokislota, flavonoid va vitamin tarkibi aniqlangan;

Allium karataviense Regel o'simligi piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug'larining tarkibidagi makro-, mikro- va toksik elementlarning miqdoriy qiymatlari aniqlangan;

Allium karataviense Regel o'simligi piyozidan 2 ta modda individual holda ajratib olingan hamda ularning tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari bilan isbotlangan;

Allium karataviense Regel o'simligi piyozidan tayyorlangan biologik faol qo'shimcha uchun TIF TN qoidalariga asosan yangi tovar kodi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Allium karataviense Regel o'simligidan saponinlarni ajratib olishning samarali usuli ishlab chiqilgan;

Allium karataviense Regel o'simligi yallig'lanishga qarshi va antioksidant ta'sirga ega saponinlarning tabiiy manbasi sifatida isbotlangan;

Allium karataviense Regel o'simligi piyozi asosida biologik faol qo'shimcha va me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilgan;

Allium karataviense Regel o'simligi piyozi asosida olingan biologik faol qo'shimchaga TIF TN qoidalariga asosan tovar kodi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ekstraksiya, kolonkali va yupqa qatlamli xromatografiya, haydash, kristallash hamda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari - IQ, YuSSX, IBP-OES, xromatografik va biologik usullardan foydalanilganligi, shuningdek olingan natijalar xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda taqriz qilinuvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Allium karataviense* Regel o‘simligi piyoz, novdasi, barglari, gullari va urug‘laridagi makro- va mikroelementlar, biologik faol moddalarning miqdoriy qiymatlarining o‘simlikning o‘shish sharoitiga bog‘liq holda o‘rganilganligi va oqsillardagi aminokislotalarning miqdoriy ketma-ketlik tarkibini aniqlanganligi bilan ifodalanadi.

Olingan natijalarining amaliy ahamiyati *Allium karataviense* Regel o‘simligi piyozidan antioksidant dori vosita olinganligi, biologik faol qo‘shimcha tayyorlanganligi hamda qoratog‘ piyoz ekstrakti uchun TIF TN da yangi tovar kodini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Allium karataviense* Regel o‘simligining kimyoviy birikmalari, biologik faolligini o‘rganish va biologik faol qo‘shimcha ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Allium karataviense Regel o‘simligi piyoz ekstrakti asosida olingan “Qorator piyoz quruq ekstrakti” tabiiy biologik faol qo‘shimchasini olishga texnikaviy shartlar Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (Ts 201133366-004:2024). Mazkur texnikaviy shartlar mahsulotning sifatini nazorat qilish imkonini bergan;

Allium karataviense Regel o‘simligi piyoz asosida yaratilgan biologik faol qo‘shimcha uchun tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha **1302 19 900 1** kod raqami ishlab chiqilgan hamda Davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (Davlat bojxona qo‘mitasining 2024-yil 18-oktabrdagi 17/05-24-0009-son ma‘lumotnomasi). Natijada, eksport va import jarayonlarida biologik faol qo‘shimchalarini tasniflashni soddalashtirish hamda boj to‘lovlarini to‘g‘ri belgilash imkonini bergan;

Allium karataviense Regel o‘simligi alkaloidlarining sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash natijalaridan “Alkaloidlar kimyosi” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 333-sonli buyrug‘i). Natijada, oliy o‘quv yurtlarida bioorganik kimyo bo‘yicha mutaxassislarining bilimlarini mustahkamlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqoti natijalari 10 ta ilmiy-amaliy konferensiya va simpoziumlarda, jumladan, 4 ta xalqaro, 6 ta Respublika miqyosida o‘tkazilgan anjumanlarda ma‘ruza qilingan va muhokamalardan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 1 tasi xorijiy va 3 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 96 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida amalga oshirilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsadi hamda vazifalari asoslab berilgan, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Allium karataviense** Regel o'simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini tahlili" deb nomlangan birinchi bobida *Allium karataviense* Regel o'simligining botanik tavsifi hamda tarqalish areali keltirib o'tilgan. *Allium karataviense* Regel o'simligi tarkibida steroid saponin va sapogeninlar, sistein va uning hosilalari, ayniqsa S-almashgan sistein sulfoksidlari va γ -glutamil peptidlaridir, polisaxaridlar, pektin moddalar, gemitsellyulozalar, lipidlar miqdori hamda *Allium karataviense* Regel o'simliginin xalq tabobatida qo'llanilishi hamda biologik faolliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Allium karataviense** Regel o'simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini tahlili" deb nomlangan ikkinchi bobida o'simlikning kimyoviy tarkibi va biologik faolligi tahlil natijalari bayon etilgan.

Allium karataviense o'simligi piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug'lari tarkibidagi umumiy oqsil miqdori Keldal usuli yordamida azot miqdorini aniqlash asosida o'rganildi. Olingan natjalarga ko'ra, o'simlik urug'i tarkibida eng ko'p miqdorda oqsil aniqlandi. Urug'i tarkibidagi oqsil miqdori boshqa organlarga nisbatan 1,9-3,45 marta ko'pdir(1-jadval). Eng kam miqdorda novdasida aniqlandi. Umuman olganda o'simlik organlaridagi umumiy oqsil miqdori quyidagi tartibda ortib boradi: novda < barglari < piyozi < gullari < urug'lari. *Allium karataviense* o'simligining urug'larini oqsillarning boy manbai ekanligini ta'kidlash mumkin.

1-jadval

Allium karataviense o'simligi organlarining umumiy oqsil miqdori

№	Namuna	Umumiy oqsillar miqdori, %
1	Urug'lari	16,533
2	Novda	4,793
3	Gullari	8,681
4	Barglari	7,256
5	Piyozi	7,844

Allium karataviense o'simligi piyozi, barglari, novdasi, gullari va urug'lari tarkibidagi oqsillarning aminokislota tarkibi YuSSX usulida o'rganildi. O'simlik organlari tarkibida 20 ta aminokislota miqdori aniqlandi(2-jadval). O'simlik urug'lari

tarkibida eng ko‘p miqdorda aminokislotalar aniqlandi. Urug‘lari tarkibidagi aminokislotalar miqdori boshqa organlarga nisbatan 1,48-2,68 marta ko‘pdir. Eng kam miqdorda novdasida aniqlandi. *Allium karataviense* o‘simligi piyozi, barglari, novdasi, gullari va urug‘lari tarkibidagi aminokislotalar miqdori quyidagi tartibda ortib boradi: novdasi < piyozi < gullari < barglari < urug‘lari. O‘simlik piyozida eng ko‘p miqdorda sistein aminokislotalari va eng kam miqdorda asparagin kislotalari aniqlandi. Sisteinning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 1,83-112,63 marta ko‘pdir. Sistein va metionin kabi oltingugurt saqlagan aminokislotalarning miqdori aminokislotalarning umumiy miqdoriga nisbatan 41,42% ni tashkil etdi. *Allium karataviense* o‘simligi piyozi tarkibida almashinmaydigan barcha aminokislotalar aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori 3,95 g(30,6%) ni tashkil etdi. Almashinmaydigan aminokislotalar miqdori quyidagi tartibda ortib boradi: treonin < lizin < fenilalanin < izoleytsin < triptofan < gistidin < leytsin < valin < metionin. Eng ko‘p miqdorda metionin va eng kam miqdorda treonin aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 2,93-31,2 marta ko‘pdir. *Allium karataviense* o‘simligi piyozi tarkibida sistein, metionin, arginin va glutamin aminokislotalari miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ko‘proqdir(2-jadval).

O‘simlik novdasida eng ko‘p miqdorda sistein aminokislotalari va eng kam miqdorda glitsin aniqlandi. Sisteinning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 1,31-38,43 marta ko‘pdir. Sistein va metionin kabi oltingugurt saqlagan aminokislotalarning miqdori aminokislotalarning umumiy miqdoriga nisbatan 44,26% ni tashkil etdi.

2-jadval

Allium karataviense o‘simligi turli organlarining aminokislotalar tarkibi(mg/gr)

Aminokislotalar Nomi	Piyozi	Novdasi	Barglari	Gullari	Urug‘lari
	Konsentratsiya, mg/gr				
Asparagin kislota	0,030731	0,221072	0,451239	0,315773	0,259643
Glutamin kislota	0,454603	0,335435	0,924338	0,805801	2,568726
Serin	0,14764	0,433673	0,904974	0,537309	0,34088
Glitsin	0,113432	0,055109	0,324068	0,426414	0,641228
Asparagin	0,223329	0,108933	0,743895	0,854434	0,936054
Glutamin	1,164675	0,360558	2,127822	1,236388	0,656375
Sistein	3,461202	2,118033	2,84153	1,864481	1,885246
Treonin	0,060606	0,248289	0,269795	0,154448	0,332356
Arginin	1,263063	0,110239	0,296285	0,258834	0,778919
Alanin	0,661017	0,466179	0,761623	1,130617	1,601773
Prolin	0,718888	0,50353	0,713151	0,426302	2,943071
Tirozin	0,73028	0,414758	0,268024	0,762511	1,103053
Valin	0,645181	0,310733	0,787169	0,961995	0,524476
Metionin	1,890309	1,620095	1,936088	2,040131	3,140012
Gistidin	0,275093	0,10285	0,154275	0,244114	2,736059
Izoleytsin	0,141095	0,120021	0,314058	0,230789	0,487792
Leytsin	0,474429	0,498553	1,025088	0,856546	0,527822
Triptofan	0,221577	0,209352	0,150061	0,435513	0,536064

Fenilalanin	0,132888	0,07949	0,087379	0,245955	0,378034
Lizin	0,109419	0,128858	0,179559	0,156914	0,279559
Ja'mi	12,91946	8,445761	15,26042	13,94527	22,65714

Allium karataviense o'simligi novdasi tarkibida almashinmaydigan barcha aminokislotalar aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori 3,32 g(39,3%) ni tashkil etdi. Almashinmaydigan aminokislotalar miqdori quyidagi tartibda ortib boradi: fenilalanin < gistidin < izoleytsin < lizin < triptofan < treonin < valin < leytsin < metionin. Eng ko'p miqdorda metionin va eng kam miqdorda fenilalanin aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 4,25-38,43 marta ko'pdir. *Allium karataviense* o'simligi novdasi tarkibida sistein va metionin aminokislotalari miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ko'proqdir(2-jadval).

O'simlik barglarida eng ko'p miqdorda sistein va eng kam miqdorda fenilalanin aminokislotalari aniqlandi. Sisteinning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 1,34-32,52 marta ko'pdir. Sistein va metionin kabi oltingugurt saqlagan aminokislotalarning miqdori aminokislotalarning umumiy miqdoriga nisbatan 21,31% ni tashkil etdi. *Allium karataviense* o'simligi piyozi tarkibida almashinmaydigan barcha aminokislotalar aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori 4,90 g(32,13%) ni tashkil etdi. Eng ko'p miqdorda metionin va eng kam miqdorda treonin aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 1,89-22,16 marta ko'pdir. *Allium karataviense* o'simligi barglari tarkibida sistein, glutamin, metionin va leytsin aminokislotalari miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ko'proqdir(2-jadval).

O'simlik gullarida eng ko'p miqdorda metionin va eng kam miqdorda treonin aminokislotalari aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 1,09-13,21 marta ko'pdir. Metionin va sistein oltingugurt saqlagan aminokislotalarning miqdori aminokislotalarning umumiy miqdoriga nisbatan 28% ni tashkil etdi. *Allium karataviense* o'simligi piyozi tarkibida almashinmaydigan barcha aminokislotalar aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori 5,32 g(38,2%) ni tashkil etdi. Eng ko'p miqdorda metionin va eng kam miqdorda treonin aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 2,12-23,21 marta ko'pdir. *Allium karataviense* o'simligi gullari tarkibida metionin, sistein, glutamin, va alanin aminokislotalari miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ko'proqdir(2-jadval).

O'simlik urug'larida eng ko'p miqdorda metionin va eng kam miqdorda asparagin kislota aminokislotalari aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan 1,07-11,6 marta ko'pdir. Metionin va sistein oltingugurt saqlagan aminokislotalarning miqdori aminokislotalarning umumiy miqdoriga nisbatan 22,18% ni tashkil etdi. *Allium karataviense* o'simligi piyozi tarkibida almashinmaydigan barcha aminokislotalar aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalarning miqdori 8,94 g(39,47%) ni tashkil etdi. Almashinmaydigan aminokislotalar miqdori quyidagi tartibda ortib boradi: lizin < treonin < fenilalanin < izoleytsin < valin < leytsin < triptofan < gistidin < metionin. Eng ko'p miqdorda metionin va eng kam miqdorda lizin aniqlandi. Metioninning miqdori boshqa

aminokislotalarga nisbatan 1,15-11,23 marta ko'pdir. *Allium karataviense* o'simligi piyozni tarkibida metionin, prolin, gistidin, glutamin kislota, sistein va alanin aminokislotalari miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ko'proqdir. Almashinadigan aminokislotalarni miqdori 0,45-3,46 mg/gr oralig'ida aniqlangan. Eng ko'p miqdorda sistein o'simlikning piyoz qismida aniqlangan bo'lib, miqdori 3,46 mg/gr ni tashkil etgan. O'simlikning urug' qismini almashinadigan aminokislotalar manbai ekanligini ko'rish mumkin. Almashinmaydigan aminokislotalarni miqdori 1,62-3,14 mg/gr oralig'ida aniqlangan. Eng ko'p miqdorda metionin o'simlikning piyoz qismida aniqlangan bo'lib, miqdori 3,14 mg/gr ni tashkil etgan. Urug' qismida yuqori miqdorda gistidin aminokislota aniqlanganligini ta'kidlash mumkin. O'simlikning urug' qismini almashinmaydigan aminokislotalar manbai ekanligini ko'rish mumkin.

Allium karataviense o'simligi tarkibi boshqa *Allium* turkumiga kiruvchi o'simliklar kabi o'z tarkibida oltingugurt saqlagan birikmalar tutganligi uchun o'simlikning barcha organlarida metionin va sistein kabi o'z tarkibida oltingugurt saqlagan aminokislotalar ko'proq miqdorda aniqlangan. O'simlik piyozni, urug'lari va barglari tarkibida boshqa organlarga nisbatan ko'proq miqdorda metionin va sistein aniqlangan. Qolgan organlarda deyarli bir xil miqdorda metionin va sistein aniqlangan. Bu esa *Allium* turkumi o'simliklarini turli xil oltingugurt saqlagan birikmalar manbai ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi.

Allium karataviense o'simligi piyozni, novdasi, barglari, gullari va urug'larining flavonoid tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli bilan tadqiq qilindi. O'simlikning gullarida rutin, apigenin, giperazid va gall kislotalari hamda piyozni, novdasi, va barglarida apigenin, giperazid va gall kislotalari aniqlangan (3-jadval). Tadqiq qilingan barcha namunalarda gall kislota yuqori miqdorga ega. Flavonoidlarning eng ko'p miqdori gullarida (182,113 mg/100 g), eng kam miqdori novdasida aniqlangan (117,05 mg/100 g). Robinin, lyutenin va kversetin flavonoidlari o'simlikning hech qaysi namunasida aniqlanmadi.

3-jadval

Allium karataviense o'simligi tarkibidagi flavonoidlar miqdori

№	Namuna	Flavonoidlar miqdori, mg/100 g						
		Robinin	Rutin	Apigenin	Giperazid	Gall kislota	Lyutenin	Kversetin
1	Piyozni	-	-	30,214	10,214	106,501	-	-
2	Novdasi	-	-	24,691	5,214	87,145	-	-
3	Barglari	-	-	23,456	4,337	91,987	-	-
4	Gullari	-	19,121	33,215	8,741	121,036	-	-
5	Urug'lari	-	-	12,311	5,625	140,414	-	-

Apigenin, giperazid va gall kislota o'rganilgan barcha namunalarda aniqlandi. *Allium karataviense* o'simligining turli organlarida 4,337-10,214 mg/100 g gacha giperazid aniqlandi. Giperazid ma'lum flavonoid bo'lsada, *Allium* turkumi o'simliklarida birinchi marta aniqlandi. Olingan natijalarni xulosa qilib quyidagilarni ta'kidlash joizdir. *Allium karataviense* o'simligining etanol ekstraktini flavonoid tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli bilan tadqiq qilinishi

natijasida o‘simlikning piyozi, novdasi, bargi, guli va urug‘ida rutin, apigenin, giperazid va gall kislotalari borligi aniqlandi. Tahlil natijasida o‘simlikning guli tarkibida eng ko‘p miqdorda flavonoidlar mavjudligi namoyon bo‘ldi. *Allium turkimi* o‘simliklarida hozirgacha mavjudligi yoritilmagan giperazid flavonoidi *Allium karataviense* o‘simligining turli organlarida aniqlandi.

Allium karataviense o‘simligining piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug‘lari tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar YuSSX usulida o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida o‘simlik tarkibida B₁, B₂, B₃, B₆ va C vitaminlarining mavjudligi aniqlandi. O‘simlik piyozi, gullari va urug‘lari tarkibida 4 ta, novdasi va barglarida 2 tadan vitaminlar miqdori aniqlandi(4-jadval).

O‘simlikning barcha organlarida B₁ va B₂ vitaminlari aniqlandi. C vitamin piyozi, gullari va urug‘lari tarkibida, B₃ vitamin gullari va urug‘larida hamda B₆ vitamini faqat piyozida aniqlandi. B₉ va B₁₂ vitaminlari o‘simlikning hech qaysi organlarida aniqlanmadi. O‘simlik piyozi(47,271 mg/100g) va gullarida(47,727 mg/100g) deyarli bir xil miqdorda suvda eruvchan vitaminlar aniqlangan. Novdasi(19,016 mg/100g), urug‘lari(17,375 mg/100g) va barglari(14,134 mg/100g) kamroq miqdorda suvda eruvchan vitaminlar aniqlangan. Barcha vitaminlar orasida eng ko‘p miqdorda B₁ vitamini aniqlangan bo‘lib, uning miqdori piyozida 24,118 mg/100 g ni tashkil etdi. O‘simlikning gullari esa B₂, B₃ va C vitaminlariga boy hisoblanadi.

4-jadval

Allium karataviense o‘simigi tarkibidagi vitaminlar miqdori

№	Namuna	Miqdoriy tarkib, mg/100 g						
		B ₁	B ₂	B ₃	B ₆	B ₉	B ₁₂	C
1	Piyozi	24,118	12,524	-	7,508	-		3,121
2	Novdasi	9,752	9,264	-		-		-
3	Barglari	2,663	11,471	-		-		-
4	Gullari	1,874	15,364	16,258				14,231
5	Urug‘lari	1,447	9,745	3,448				2,735

O‘simlikning piyozi va gullarida eng ko‘p miqdorda suvda eruvchan vitaminlar aniqlanib, turli biologik faol qo‘shimchalar va dorivor vositalarni tayyorlashda qo‘llash mumkin. Olingan tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘simlikning barcha organlarida suvda eruvchan vitaminlar mavjudligi aniqlandi. O‘simlik tarkibida suvda eriydigan B₁, B₂, B₃, B₆, B₉, B₁₂ va C vitaminlarning miqdoriy tarkibi o‘ganildi. O‘simlikning piyozida B₁, B₂, B₆ va C, gullari va urug‘larida B₁, B₂, B₃ va C, novdasi va barglarida B₁ va B₂ vitaminlari aniqlandi. O‘simlikning piyozi va gullarini suvda eruvchan vitaminlar manbai sifatida tavsiya etish mumkin.

Allium karataviense o‘simligi mineral tarkibi induktiv bog‘langan plazmalı optik emission spektrometriya usuli bilan tadqiq qilindi. O‘simlikning piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug‘lari tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdori aniqlandi. O‘simlik tarkibida 22 ta elementning miqdori o‘rganildi. Mineral tarkib eng ko‘p miqdorda barglarida aniqlangan bo‘lib, 444,594 mg/10 g ni tashkil etdi(5-jadval).

5-jadval

Allium karataviense o‘simligi tarkibidagi makroelementlar miqdori(mg/10 g)

No	Elementlar	To‘lqin uzunliklar (nm)	Piyoz	Novdasi	Barglari	Gullari	Urug‘lari
1	Na	589.592	1,769	1,971	3,204	1,810	0,782
2	Mg	285.213	3,642	2,023	14,954	10,438	6,972
3	P	213.617	21,011	10,453	11,801	27,464	22,986
4	S	181.975	1,351	0,118	0,160	1,394	0,519
5	K	766.490	182,474	146,556	353,825	191,707	61,898
6	Ca	317.933	4,05	11,39	60,65	20,41	7,60

Makroelementlar miqdori mineral tarkibga nisbatan bargida 99,47%, novdasida 99,03%, urug‘ida 97,64%, piyozida 96,71 % hamda gulida 85,66% ni tashkil etdi. Barcha namunalarda kaliy eng yuqori miqdorga ega, bargi va novdasida kalsiy, qolgan o‘simlik organlarida fosforning miqdori ko‘proqdir. Kaliyning miqdori turli organlarda 62~354 mg/10 gr ni tashkil etadi. Barglarida aniqlangan kaliyning miqdori boshqa organlariga nisbatan 1,85-5,72 marta ko‘pdir. Umuman olganda turli organlarda kaliyning miqdori boshqa makroelementlarga nisbatan 5,83-2999 marta ko‘pdir. Kaliy boshqa makroelementlarga nisbatan birmuncha yuqori miqdorga egadir. O‘simlik piyozida kaliyning miqdori 85,15%; novdasida 84,95%; barglarida 79,58; gullarida 75,71% va urug‘larida 61,43% ni tashkil etgan. O‘simlik piyozidan urug‘larigacha mineral tarkibda kaliy miqdorini kamayib borishini kuzatish mumkin. Kalsiyning miqdori turli organlarda 1,9- 13,63% ni tashkil etdi. Fosforning miqdori turli organlarda 2,65-22,81% ni tashkil etdi. Magniyning miqdori 1,17-6,92% ni tashkil etdi. Turli organlardagi natriyni va oltingugurtni miqdorlari 1,2% dan ortiq bo‘lgani yo‘q.

Allium karataviense o‘simligi tarkibida 12 ta mikroelementning miqdori aniqlandi. Mikroelementlarning umumiy miqdori piyozida 7,199 mg/10 g; novdasida 1,669 mg/100 g; barglarida 3,709 mg/100 g; gullarida 42,36 mg/100 g va urug‘larida 2,418 mg/100 g ni tashkil etdi. O‘simlikning turli organlarida tadqiq qilingan 12 ta mikroelementdan 9 tasi barcha organlarda aniqlandi. O‘simlik organlaridagi mikroelementlarning asosiy miqdorini temir tashkil etadi. Temirdan boshqa mikroelementlarning miqdori kichik, ya’ni 1 gr dan kamroq miqdorda aniqlandi(6-jadval).

6-jadval

Allium karataviense o‘simligi tarkibidagi mikroelementlar miqdori(mg/10 g)

No	Elementlar	To‘lqin uzunliklar (nm)	Piyoz	Novdasi	Barglari	Gullari	Urug‘lari
1	Li	670.784	0,014	0,011	0,035	0,017	0,007
2	B	249.677	0,083	0,076	0,270	0,152	0,024
3	Cr	267.716	0,017	0,023	0,096	0,037	0,015
4	Mn	257.610	0,117	0,164	1,150	0,438	0,233
5	Fe	238.204	6,560	0,987	1,387	41,088	1,780

6	Co	228.616	0	0	0,001	0	0
7	Cu	327.393	0,039	0,022	0,068	0,057	0,030
8	Zn	206.200	0,313	0,189	0,331	0,457	0,311
9	Ag	328.068	0	0	0	0	0
10	Sn	283.998	0,020	0,013	0,037	0	0,015
11	Sb	206.836	0,002	0	0	0	0
12	Ba	233.527	0,034	0,184	0,334	0,114	0,003

Temirning o‘simlikning turli organlardagi miqdori bir-biriga nisbatan 6~41 mg/10 g ni tashkil etdi. Kumush o‘simlikning hech qaysi organida aniqlanmadi. Kobalt faqat barglarida, surma esa faqat piyozida aniqlandi. Qalay gullarida aniqlanmadi.

Allium karataviense o‘simligi piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug‘lari tarkibida zaharli elementlardan mishyak, kadmiy, simob va qo‘rg‘oshinning miqdori tadqiq qilindi. Kadmiy va simob o‘simlikning o‘rganilgan hech qaysi organida aniqlanmadi. Mishyak o‘simlikning piyozi va gullarida aniqlandi. Qo‘rg‘oshin novdasi, barglari, gullari va urug‘larida aniqlandi. Gullarida mishyak va qo‘rg‘oshin aniqlandi. O‘simlik piyozida faqat mishyak aniqlangan bo‘lsada, miqdori jihatidan zaharli elementlar eng ko‘p aniqlangan organ hisoblanadi.

Umumiy kul miqdorini aniqlash uchun maydalangan *Allium karataviense* o‘simligining quritilgan namunalari (piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug‘lari) bilan amalga oshirildi. Namunalar tarkibidagi umumiy kul miqdori yuqori haroratda kuydirish orqali aniqlandi. Olingan natijalar 7-jadvalda keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘simlikni turli organlarida 2,43-8,88% gacha kul miqdori aniqlangan.

7-jadval

Allium karataviense o‘simligi organlarining umumiy kul miqdori

№	O‘simlik namunasi	Umumiy kul miqdori
1	Piyozi	2,43
2	Novdasi	3,87
3	Barglari	8,88
4	Gullari	3,59
5	Urug‘lari	4,41

Umumiy kul miqdori o‘simlikni barglarida eng ko‘p miqdorda aniqlangan bo‘lib, barglarida umumiy kul miqdori boshqa organlariga nisbatan 2,014-3,65 marta ko‘proq miqdorda aniqlangan.

Alliogenin *Allium karataviense* o‘simligining etilatsetat fraktsiyasidan ajratib olindi(1) (1-rasm). Oq kukun modda, suyuqlanish harorati 218-221°C, Mr 464.6 g/mol. -71,0°(c 1.10, piridin). 3338 cm^{-1} dagi yutilish chizig‘i OH guruh; 2930 cm^{-1} yutilish chizig‘i CH_2 –guruhlari valent tebranishlari; 1449 cm^{-1} dagi yutilish chizig‘i CH va CH_2 guurhlarining deformatsion tebranishlari; 1340 cm^{-1} ikkilamchi spirtlar, 1174 cm^{-1} uchlamchi spirtlar; 1243 cm^{-1} C-O bog‘lari; 898 va 862 cm^{-1} steroid sapogeninlar izo-seriyalari xususiyatli yutilish chiziqlari namoyon bo‘lgan. Yuqorida yoritib o‘tilgan yutilish chiziqlari asosida birikma tarkibida izo-seriyadagi(25-D) tetragidrosapogenin hamda unga bog‘langan uchta ikkilamchi va

bitta uchlamchi gidroksil guruh mavjudligi haqida so‘z yuritish mumkin.

Yukkagenin *Allium karataviense* o‘simligining xloroform fraktsiyasidan ajratib olindi(2) (2-rasm). CAS raqami 511-97-7. Oq kukun modda, suyuqlanish harorati 238-239°C, Mr 430.6 g/mol. -114,7°(c 1.85, xloroform).

1

1-rasm. Alliogeninning tuzilishi

IQ spektral tahlillariga ko‘ra 3401 sm^{-1} dagi yutilish chizig‘i bir nechta OH guruh; 2914 sm^{-1} yutilish chizig‘i CH –guruhlarini valent tebranishlari; 1642 sm^{-1} dagi yutilish chizig‘i C=C guruhlarining deformatsion tebranishlari; 1452 sm^{-1} dagi yutilish chizig‘i CH va CH₂ guruhlarining deformatsion tebranishlari; 1368 sm^{-1} ikkilamchi spirtlar; 1240 sm^{-1} C-O bog‘lari; 980 va 899 sm^{-1} steroid sapogeninlar izo-seriyalari xususiyatli yutilish chiziqlari namoyon bo‘lgan. Yuqorida yoritib o‘tilgan yutilish chiziqlari asosida birikma tarkibida izo-seriyadagi(25-D) tetragidrosapogenin hamda unga bog‘langan uchta ikkilamchi va bitta uchlamchi gidrokisil guruh mavjudligi haqida so‘z yuritish mumkin.

2

2-rasm. Yukkageninning tuzilishi

Allium karataviense o‘simligidan ajratib olingan fenol moddalar yig‘indisining o‘tkir zaharliligi tadqiq qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ekstraktni 50-500 mg/kg dozada og‘iz orqali yuborilganda umumiy holat va xatti-harakatlarda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmadi. Dozani 1000-2000 mg/kg ga oshirganda birinchi kun davomida umumiy holatning engil tushkunligi va jismoniy faoliyatning cheklanishi kuzatildi. Dozani 3000-4000 mg/kg ga oshirilganda 30-40 daqiqadan so‘ng intoksikatsiyaning belgilari paydo bo‘ldi. Hayvonlarning tushkun umumiy holati, tashqi ogohlantirishlarga bo‘lgan reaksiyalarning pasayishi hamda og‘riqli tovush chiqarishi namoyon bo‘ldi. Tajriba hayvonlari 2-3 kun shu holatda qoldi va keying kuzatuvlar davomida intoksikatsiya belgilari bartaraf bo‘ldi. Dozani yanada 5000

mg/kg ga oshirish yuqorida tavsiflangan zaharlanish belgilarining kuchayishiga olib keldi. Nafas olish qiyinlashdi, ba'zi hayvonlarda titrash xususiyati paytida tremor kuzatildi. 5000 mg/kg dozada hayvonlarning o'limi moddani qo'llashdan keyingi birinchi kuni sodir bo'ldi va 6 ta sichqonlardan 2 tasida dinamiya va o'lim holati kuzatildi. Keyingi 14 kun davomida har kuni barcha guruhdagi hayvonlarning umumiy xolati va faolligi, o'zini tutishidagi alohida holatlar, nafas olish chuqurligi va tezligi, tuki va terisining holati, siydik chiqarish tezligi va tana vaznining o'zgarishi kabi ko'rsatkichlar kuzatib borildi. Barcha hayvonlar bir xil vivariy sharoitida, umumiy ovqatlanish tartibida saqlandi. Suv va ovqatlanish cheklanmadi. Moddalarni o'rtacha o'lim dozasi (LD₅₀) Litchfield va Uilkokson usulida aniqlandi. Moddani og'iz orqali yuborib o'rganilganda o'rtacha o'lim dozasi LD₅₀ 4806(243±322) mg/kg ni tashkil etdi. Yuqoridagi natijalarga asoslangan xolda o'rganilayotgan piyozdan ajratib olingan faol modda (GOST 12.1.007-76) standarti bo'yicha o'tkir zaharliligi jihatidan kam zaharliylik moddalar guruxiga kiradi(IV sinf).

Allium karataviense o'simligidan ajratib olingan fenol moddalar yig'indisining antioksidant faolligini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, *in vitro* tajribaiarida o'rganilayotgan fraktsiya 1·10⁻⁵ konsentratsiyada lipidlarning peroksidli oksidlanish jarayonlariga turli darajada 36,3% gacha bo'lgan ingibirlovchi ta'sir ko'rsatdi. Fraktsiya 1·10⁻³ mg/ml konsentratsiyada tekshirilganda MDA miqdorini yanada yuqoriroq pasaytirishga olib keldi (56,0%). Solishtirish uchun olingan vitamin E - 79,0% preparati yaqqol samaradorlikni namoyon qildi(8-jadval). Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, *Allium karataviense* Regel dan ajratib olingan fenol moddalar yig'indisining 1·10⁻³ mg/ml konsentratsiyada yuqori antioksidant faollikni namoyon etdi.

8-jadval

***Allium karataviense* Regel dan ajratib olingan fenol moddalar yig'indisining MDA miqdori bo'yicha, lipidlarning peroksidli oksidlanish miqdoriga ta'siri (M±m, n=6)**

Tajriba sharoiti	1·10 ⁻⁵ mg/ml		1·10 ⁻³ mg/ml	
	MDA, n/mol/mg	Effekt, %	MDA n/mol /mg	Effekt, %
Nazorat	0.91 ±0.28	-		
Vitamin E	0,19 ±0,012	79.0		
<i>Allium karataviense</i> (fenol moddalar)	0,58± 0,21	36,3*	0.40±0.016	56.0*

Eslatma: * -Nazorat hayvonlar ko'rsatkichlariga nishatan aniqlik ($p < 0,05$).

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'pka shishi davolanmagan hayvonlarda qon zardobidagi MDA miqdori 36,7% ga, o'pkada esa 23,5% ga oshdi. O'pka shishi ta'sirida qon zardobidagi superoksiddismutaza (SOD) va katalaza faolligining (23,2 va 23,5% ga), o'pka to'qimasida (58.6 va 31.6% ga) kamayishi organizmda salbiy

o'zgarishlarga sabab bo'ldi. O'rganilayotgan substansiya ta'sirida o'pka shishi sharoitida antioksidant tizimi kalit fermentlari faollashdi. Katalaza miqdori nazorat guruhiga nisbatan fenol moddalar yig'indisi ta'sirida 25,9% ga oshdi, superoksiddismutaza faolligi 31,2 %ga ko'tarildi. Buning natijasida lipidlarning peroksidli oksidlanishi oxirgi mahsuloti bo'lgan malon dialdegidi miqdori 20,3%ga ingibirlandi. Olingan natijalardan shu ma'lum bo'ldiki, antioksidant ta'sirni namoyon qiluvchi o'rganilayotgan *Allium karataviense* o'simligidan ajratib olingan fenol moddalar yig'indisining toksik o'pka shishi chaqirilgan hayvonlarda MDA, SOD va katalaza ko'rsatkichlariga yaqqol ijobiy ta'sirga ega bo'ldi. Xulosa qilib aytganda *Allium karataviense* o'simligidan ajratib olingan fenol moddalar yig'indisi o'tkir zaharliligi jihatidan kam zaharliylik moddalar guruxiga kirishi va antioksidant faollikni namoyon qilishi, kelgusuda bu fenol moddalar yig'indisining boshqa biologik faolliklarini chuqurroq o'rganishga va dori vositasi yaratilishiga zamin bo'la oladi.

Allium karataviense o'simligi asosida tayyorlangan "Qoratov piyozi quruq ekstrakti" biologik faol moddalarning qo'shimcha manbai sifatida qo'llaniladi. *Allium karataviense* o'simligidan tayyorlangan o'simlik xomashyosi "Qoratov piyozi quruq ekstrakti" ga Ts 201133366-004:2024 texnik standart berilgan. Tayyorlangan ekstrakt quyidagi organoleptik xossalarga ega bo'lishi lozim: tashqi ko'rinishi kukunsimon va rangi och sariq rangdan to kulranggacha. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra, gall kislotalari massa ulushi - 0,5% dan kam bo'lmasligi; namlikni massa ulushi – 1,0% dan kam bo'lmasligi; umumiy kul miqdori – 2% dan kam bo'lmasligi; etil spirtining qoldiq miqdori – 5000 m.u. dan ko'p bo'lmasligi kerak. Toksik elementlarning miqdori, pestitsidlar qoldiq miqdori, radionuklidlar va mikrobiologik ko'rsatkichlari 0366-19-sonli "Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi gigiyenik normativlari" SanQvaN talablariga mos kelishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining Tovar nomenklaturasining 2022 yil tahriri II bo'limi "Kelib chiqishi o'simliklarga mansub mahsulotlar" deb nomlangan. 13-Guruh tozalanmagan tabiiy smola; kamedi yoki boshqa o'simlik sharbati va ekstraktlarini o'z ichiga olib, quyidagi tovar pozitsiyalaridan iboratdir.

1301 - Shellak – tabiiy tozalanmagan smola; tabiiy saqichlar, qatronlar, saqichlar va qatronlar (masalan, balzamlar).

1302 - Sok va ekstraktlar o'simliklardan olingan; pektinlar,pektinatlar va pektatlar; agar-agar va boshqa yelim yoki quyuqlashtiruvchi moddalar o'simliklardan olingan,o'zgartirilgan hamda o'zgartirilmagan.

1302- Tovar pozitsiyasidagi 1302 19 tovar subpozitsiya asosida tovar kod raqami belgilandi.

1302 19 – – boshqalar:

1302 19 050 0 – – – vanil qatroni –

1302 19 900 0 – – – boshqalar –

Allium karataviense Regel o‘simligi fenol moddalar ekstrakti Tovar sifatida sinflanib, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga ko‘ra 1302 tovar pozitsiyasiga to‘g‘ri kelishi aniqlanib, ekstrakt uchun

-1302 19 900 1 – qoratog‘ piyoz ekstrakti

yangi tovar kod raqami tavsiya etilgan. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mazkur kod raqami Tovarlarini tasniflash va kodlashning uyg‘unlashtirilgan tizim asosida joriy etilgan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasining navbatdagi tahririni ishlab chiqish uchun qabul qilingan.

Dissertatsiyaning “*Allium karataviense* Regel o‘simligi kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o‘rganish tajribalari” deb nomlangan uchinchi bobida *Allium karataviense* Regel o‘simligining oqsil va kul miqdori, flavonoidlar, vitaminlar, aminokislotalar, makro va mikro elementlar tarkibi va miqdorini aniqlash usullari keltirilgan. *Allium karataviense* Regel o‘simligidan alliogenin va yukkagenin sapogeninlarini ajratib olish tajribalari keltirib o‘tilgan. Shuningdek *Allium karataviense* Regel o‘simligining piyozi ekstraktining antioksidant faolligi hamda *Allium karataviense* Regel o‘simligi ekstraktining o‘tkir zaharligini o‘rganish usullari keltirilgan.

XULOSALAR

Allium karataviense Regel o‘simligining kimyoviy komponentlari va biologik faol mahsulotlar olish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Namangan viloyati hududida o‘sovchi *Allium karataviense* Regel o‘simligining piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug‘larining tarkibidagi oqsil va kul miqdori, aminokislota tarkibi, flavonoid va vitaminlar miqdori tadqiq etildi;

2. Induktiv bog‘langan plazmali optik-emission spektroskopiya usuli yordamida *Allium karataviense* Regel o‘simligi makro- va mikroelement tarkibini o‘rganish natijasida 22 element aniqlandi; asosiy komponentlar sifatida organizm uchun zarur bo‘lgan kaliy, kalsiy va temir ekanligi ko‘rsatildi.

3. *Allium karataviense* Regel o‘simligi flavonoid hamda suvda eruvchan vitaminlar tarkibi va miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli bilan o‘rganildi. Yurak, qon-tomir, asab va immun tizimlari uchun muhim B va C vitaminlar mavjudligi isbotlandi.

4. *Allium karataviense* Regel o‘simligi piyozi, novdasi, barglari, gullari va urug‘larining oqsil miqdori va aminokislota tarkibi aniqlandi. O‘simlikning o‘rganilgan barcha organlarida oqsil sintezida ishtirok etuvchi 20 ta aminokislotalar mavjudligi aniqlandi. Ko‘proq miqdorda jami aminokislotalar va hususan glutamin, sistein va metionin barglarida to‘planishi isbotlandi.

5. *Allium karataviense* Regel o‘simligi piyozidan saponinlarning spirtli ekstraktsiyasi amalga oshirildi. Moddalar yig‘indisidan 2 ta steroid saponin ajratib olindi va tuzilishi fizik-kimyoviy usullar bilan isbotlandi.

6. *Allium karataviense* Regel o‘simligi fenol moddalar yig‘indisining o‘tkir zaharliligi xususiyati o‘rganildi, tajribalar natijasida, og‘iz orqali hayvonlar oshqozoniga bir marta yuborilganda o‘rtacha o‘lim chaqiruvchi dozasi 4806 mg/kg ni tashkil etishi aniqlandi.

7. *Allium karataviense* Regel o'simligi fenol moddalar yig'indisining antioksidant faolligi o'rganildi, tajriba natijasida fenol moddalar yig'indisi antioksidant xususiyati bo'yicha solishtirma preparat mildronatga nisbatan o'xshash faollik namoyon qildi hamda antioksidant ta'sirga ega "Qoratov piyozi quruq ekstrakti" nomli yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shimcha ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlandi hamda TIF TN qoidalari asosida sinflanib, unga yangi 1302 19 900 1 tovar kodi ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ Р^hD.03/30.12.2019.К.05.01
ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ДУСАЛИЕВА САФУРА ШАВКАТЖОН КИЗИ

**ХИМИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ РАСТЕНИЯ *ALLIUM KARATAVIENSE*
REGEL L. И ПОЛУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ
ПРОДУКТОВ**

**02.00.09 – Химия товаров
02.00.10-Биоорганическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/K833.

Докторская диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ферганского государственного университета (www.fdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научные руководители:	Хужаев Вахобжон Умарович доктор химических наук, профессор Ибрагимов Алиджан Аминович доктор химических наук, профессор
Официальные оппоненты	Матчанов Алимжан Давлетбаевич доктор химических наук, профессор Абдуганиев Бахтиёр Ермахаматович доктор химических наук, профессор
Ведущая организация:	Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится “___” _____ 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета № PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер № ____). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93; e-mail: farduinfo@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года.

(Протокол рассылки № ____ от “___” _____ 2025 года).

М.Ю.Исмоилов
Председатель заседания Научного
совета по присуждению научных
степеней, д.х.н., доцент

Ш.Ш.Тургунбаев
Учёный секретарь Научного
совета по присуждению научных
степеней, PhD

Ш.В.Абдуллаев
Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
научных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

